Ключевые слова: смешанное обучение, blended learning, будущий учитель, цифровая педагогическая компетентность, учебный дизайн, ротация станций, перевернутый класс, аудит урока, LMS-платформы, рефлексивная компетенция, инновационная педагогика, педагогическая практика, цифровая образовательная среда, проектное обучение, искусственный интеллект, чат-боты, методическое проектирование, интерактивное обучение, компетентностный подход, начальное образование.



KIRISH

Jahon ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi hamda ta'limning moslashuvchan shakllariga bo'lgan ehtiyojning ortishi aralash ta'lim (blended learning) texnologiyalarini rivojlantirish va amaliyotga tatbiq etishni dolzarb masalalardan biriga aylantirmoqda. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda an'anaviy va masofaviy ta'limning integratsiyasiga asoslangan aralash ta'lim modeli ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim vositasi sifatida e'tirof etilmoqda. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida pedagogik faoliyat olib borishga tayyorlash, ularda aralash ta'lim muhitini loyihalash va boshqarish kompetensiyalarini shakllantirish oliy pedagogik ta'limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aralash ta'lim texnologiyalarini pedagogik ta'lim tizimiga joriy etish va bo'lajak o'qituvchilarni ushbu faoliyatga tayyorlash masalalari mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, xorijiy tadqiqotchilar C.R. Graham, D.R. Garrison, N.D. Vaughan, M. Horn va H. Stakerlarning ilmiy ishlarida blended learning konsepsiyasining nazariy asoslari, didaktik imkoniyatlari hamda pedagogik afzalliklari yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida aralash ta'limning moslashuvchanlik, individuallashtirish va interaktivlikni ta'minlashdagi o'rnini alohida ta'kidlangan.

D.R. Garrison va N.D. Vaughan aralash ta'limni an'anaviy va onlayn ta'limning pedagogik jihatdan uyg'unlashgan modeli sifatida tavsiflab, unda talabalarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishini asoslaydilar. M. Horn va H. Staker esa "Stansiya rotatsiyasi", "Moslashuvchan model" va "Teskari sinf" kabi aralash ta'lim modellarining o'quv jarayonini individuallashtirishdagi pedagogik imkoniyatlarini ochib berganlar.

Texnologik-pedagogik va mazmuniy bilimlar integratsiyasiga asoslangan TPACK modeli esa P. Mishra va M. Koehler tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur yondashuv zamonaviy o'qituvchining texnologik vositalarni pedagogik maqsadlarga mos qo'llash kompetentligini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu model bo'lajak o'qituvchilarni aralash ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlashda muhim metodologik asoslardan biri sifatida qaraladi.

Rossiyalik olimlar E.S. Polat, A.A. Andreev, V.P. Bepalko va boshqalar masofaviy ta'lim hamda elektron ta'lim texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlarini tadqiq etganlar. Ular ta'lim jarayonida raqamli vositalardan foydalanish talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini rivojlantirish, kommunikativ faollikni oshirish va refleksiv fikrlashni shakllantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydilar.

Mahalliy olimlardan N.A. Muslimov, O'. Tolipov, M. Usmonboyeva, B. Xodjayev va boshqalarning ilmiy ishlarida pedagogik texnologiyalar, kasbiy kompetentlik va innovatsion pedagogik faoliyat masalalari o'rganilgan. Ularning tadqiqotlarida zamonaviy pedagogning kasbiy tayyorgarligida raqamli pedagogik vositalardan foydalanish hamda innovatsion metodlarni ta'lim jarayoniga integratsiyalash zarurligi asoslab berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda sun'iy intellekt, chatbotlar, LMS platformalari va mobil ta'lim texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari ham faol o'rganilmoqda. Tadqiqotchilar ushbu vositalar ta'lim jarayonini individuallashtirish, monitoringni avtomatlashtirish hamda talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlashda samarali ekanligini qayd etadilar.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarni aralash ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash masalasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, ushbu jarayonni metodik jihatdan takomillashtirish, raqamli pedagogik kompetentlikni rivojlantirish va innovatsion pedagogik yondashuvlarni ta'lim tizimiga integratsiyalash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni yanada kengaytirish zarur hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi bo'lajak o'qituvchilarni aralash ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishga tayyorlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shu jihatdan qaralganda, aralash ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash jarayoni nafaqat an'anaviy pedagogik faoliyatni modernizatsiya qilish vositasi, balki bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yaxlit didaktik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur jarayonning samaradorligi uning pedagogik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, tarkibiy komponentlarini aniqlash hamda ta'lim jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy asoslash bilan bevosita bog'liqdir.

Bo'lajak o'qituvchilarni aralash ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash jarayonining didaktik tizimini shakllantirish kompetensiyaviy, tizimli va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar integratsiyasi asosida takomillashtirilishi mazkur tadqiqotning muhim ilmiy yangiliklaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatga moslashuvchanligi, mustaqil ta'limni tashkil etish qobiliyati, raqamli pedagogik vositalardan foydalanish ko'nikmalari hamda refleksiv faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi. Shu sababli aralash ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash jarayoni faqat texnologik bilimlarni egallash bilan chegaralanmay, balki pedagogik fikrlash, kreativ yondashuv va innovatsion faoliyatni shakllantirishni ham nazarda tutadi.

Mazkur tayyorgarlik jarayonining pedagogik xususiyatlari avvalo ta'lim subyektlari o'rtasidagi interaktiv hamkorlikning kuchayishi bilan tavsiflanadi. Aralash ta'lim muhitida o'qituvchi bilim beruvchi subyektdan ko'ra ko'proq fasilitator, moderator va pedagogik jarayonni boshqaruvchi sifatida faoliyat yuritadi. Talaba esa passiv tinglovchidan mustaqil izlanishga asoslangan faol subyektga aylanadi. Bu holat bo'lajak o'qituvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish, axborotni mustaqil tahlil qilish, muammoli vaziyatlarga innovatsion yondashish va refleksiv baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, raqamli ta'lim platformalari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish imkoniyatining mavjudligi ta'limning shaxsga yo'naltirilganligini ta'minlaydi.

Aralash ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlashning muhim pedagogik xususiyatlaridan yana biri o'quv jarayonining moslashuvchanligi va variativligi bilan belgilanadi. Ta'limning auditoriya va virtual muhit integratsiyasi asosida tashkil etilishi talabalarning bilim olish sur'ati, qiziqishi va ehtiyojlariga mos ravishda individual faoliyat olib borishiga imkon yaratadi. Natijada o'quv jarayonida differensial yondashuv kuchayadi hamda talabalar o'rtasidagi individual farqlarni hisobga olish imkoniyati kengayadi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning kelajakdagi pedagogik faoliyatida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan maqsadli foydalanish kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Aralash o'qitish formatidagi simulyatsion mashg'ulotlarni "Stansiya rotatsiyasi" modeli asosida tashkil etish esa o'quv jarayonining interaktivligini oshirish bilan birga, talabalarni differensial va moslashuvchan ta'lim muhiti bilan ishlashga tayyorlaydi. Mazkur model asosida auditoriya mashg'ulotlarining turli stansiyalarda tashkil etilishi talabalarning individual faoliyatini kuchaytiradi hamda hamkorlik asosida o'qitish mexanizmlarini rivojlantiradi. Bu esa aralash ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlashning metodik imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida loyihaviy faoliyatga asoslangan yondashuv ham muhim metodik komponent sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotda loyihaviy faoliyatni kasbiy muammolarni hal qilishga yo'naltirish orqali ta'lim mazmunini amaliy faoliyat bilan integratsiyalash mexanizmi ishlab chiqildi. Bunda talabalar ma'lum bir professional muammoni hal qilishga qaratilgan bosqichma-bosqich vazifalarni bajarish orqali yangi bilimlarni egallaydi. Ushbu yondashuvning afzalligi shundaki, u nazariy bilimlarning real pedagogik vaziyatlar bilan uzviy bog'lanishini ta'minlaydi hamda talabalarning mustaqil va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Ta'lim texnologiyalari amaliyotining masofaviy formatda tashkil etilishi bo'lajak o'qituvchilarning raqamli pedagogik faoliyatga tayyorgarligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Amaliyotning raqamli shaklda tashkil etilishi talabalarni LMS platformalari, onlayn xizmatlar va zamonaviy dasturiy vositalar bilan ishlashga o'rgatadi. Shu bilan birga, ustoz va talaba o'rtasidagi pedagogik hamkorlikning raqamli formatda amalga oshirilishi masofaviy kommunikatsiya kompetensiyasining rivojlanishiga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvning ilmiy yangiligi sifatida ta'lim amaliyotining raqamli pedagogik muhit bilan integratsiyalashgan modeli ishlab chiqilganligini ta'kidlash mumkin.

Shuningdek, amaliyot davomida chatbotlar, generativ neyron tarmoqlar va sun'iy intellekt elementlariga asoslangan topshiriqlarning qo'llanilishi bo'lajak o'qituvchilarning zamonaviy raqamli pedagogik texnologiyalar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantiradi. Bu esa ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni integratsiyalashga tayyor bo'lgan, kreativ va raqamli fikrlashga ega pedagoglarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan qaralganda, loyiha asosida tashkil etilgan masofaviy pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchilarni raqamli ta'lim kontentini ishlab chiquvchilarning professional muhitiga integratsiyalashuvchi innovatsion metodik tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyatga real kirib borishi, avvalo, pedagogik amaliyot jarayonida yuz beradi. Shu sababli aralash ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash metodikasida amaliyot bosqichini keskin raqamlashtirish emas, balki bosqichma-bosqich murakkablashtirish tamoyiliga tayanish maqsadga muvofiqdir. Dastlab talabalar an'anaviy darslarni rejalashtirish, tashkil etish va tahlil qilish orqali pedagogik faoliyatning asosiy mantiqini egallaydilar, keyingi bosqichlarda esa aralash ta'lim elementlarini kuzatish, muhokama qilish, raqamli resurslarni ishlab chiqishda o'qituvchiga yordam berish hamda ta'lim platformalarida o'quv materiallarini joylashtirish kabi faoliyatlarga jalb etiladilar. Mazkur yondashuvning ilmiy yangiligi shundaki, unda bo'lajak o'qituvchilarni aralash ta'limga tayyorlash birdaniga murakkab raqamli faoli-



yatga o'tkazish orqali emas, balki an'anaviy pedagogik tajriba, kuzatuv, tahlil, yordamchi raqamli faoliyat va mustaqil loyihalash bosqichlari uyg'unligida tashkil etiladi.

Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar aralash ta'lim darslarini bevosita mustaqil o'tkazishdan oldin tajribali o'qituvchi faoliyatini kuzatish, darsning texnologik xaritasini tahlil qilish, elektron resurslarning o'quv maqsadlariga mosligini baholash hamda o'quvchilarning onlayn va oflayn faoliyati o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga yo'naltiriladi. Bu jarayonda talaba oddiy kuzatuvchi emas, balki pedagogik jarayonni tahlil qiluvchi, metodik qarorlarni izohlovchi va raqamli muhit imkoniyatlarini baholovchi faol subyekt sifatida shakllanadi. Natijada uning aralash ta'limni tushunishi tashqi texnik vositalar darajasida emas, balki didaktik maqsad, metodik yechim va ta'lim natijasi o'rtasidagi ichki bog'liqlikni anglash darajasida rivojlanadi.

Shu bilan birga, amaliyotga birlashtirilgan o'qituvchilarning barchasi ham aralash ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga metodik jihatdan tayyor bo'lmasligi mumkin. Ayrim hollarda ular talabalarining aralash ta'lim darslarini loyihalashi yoki "teskari sinf" modelidan foydalanishiga ehtiyotkorlik bilan yondashadilar. Bu holat bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida nafaqat talabalar, balki amaliyot rahbarlari va maktab o'qituvchilari bilan ham metodik hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan tadqiqotda aralash ta'limga tayyorlash jarayonining yangilangan metodik yechimi sifatida "talaba – metodist – amaliyotchi o'qituvchi – raqamli muhit" o'rtasidagi hamkorlik modeli asoslandi. Mazkur model talabani yolg'iz ijrochi sifatida emas, balki hamkorlikda loyihalovchi va raqamli pedagogik yechimlarni amaliyotga moslashtiruvchi mutaxassis sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarni aralash ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash konsepsiyasida professional xususiyatlarni hisobga olish tamoyili alohida ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyil o'quv topshiriqlarini umumiy nazariy bilimlar asosida emas, balki boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining real kasbiy vazifalari, dars jarayonida yuzaga keladigan metodik muammolar va raqamli ta'lim muhitida bajariladigan amaliy harakatlar bilan bog'lab tashkil etishni nazarda tutadi. Shuning uchun faol o'qitish metodlari, kontekstual ta'lim, kasbiy yo'naltirilgan topshiriqlar va raqamli platformalardagi amaliy mashqlar bo'lajak o'qituvchining kelgusidagi faoliyatiga yaqinlashtirilgan pedagogik vaziyatlar asosida quriladi. Bu esa kompetensiyaviy yondashuvning amaliy ifodasi bo'lib, talabalarda aralash ta'limni nafaqat bilish, balki uni rejalashtirish, amalga oshirish, tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyatini rivojlantiradi.

Bo'lajak o'qituvchi uchun "Stansiya rotatsiyasi" modelini o'zlashtirish faqat dars shaklini bilish bilan cheklanmaydi. U har bir stansiyaning didaktik vazifasini aniqlashi, topshiriqlarni o'quv natijalariga moslashtirishi, vaqtni to'g'ri taqsimlashi, guruhlar harakatini boshqarishi va yakuniy refleksiyaning tashkil etilishi lozim. Shu sababli tadqiqotda mazkur model bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarning tizimli loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik topshiriqlar ishlab chiqildi. Ushbu topshiriqlar orqali talabalar aralash darsning faqat tashkiliy tomonini emas, balki uning ichki didaktik mantiqini ham anglab boradilar. Yangilik shundaki, "Stansiya rotatsiyasi" modeli boshlang'ich ta'lim fanlari mazmuniga moslashtirilib, ona tili va o'qish savodxonligi darslarida individual, hamkorlikdagi va ijodiy faoliyatni birlashtiruvchi metodik mexanizm sifatida talqin etildi.

Aralash ta'limni loyihalashda o'quv dizayni alohida metodik vosita sifatida muhim o'rin tutadi. O'quv dizayni bo'lajak o'qituvchining darsni tashqi shakl sifatida emas, balki maqsad, mazmun, faoliyat, vosita va baholash o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikka ega pedagogik tizim sifatida qurishini ta'minlaydi. Bu jarayonda talaba tayyor platforma imkoniyatlarini shunchaki o'rganmaydi, balki ularni pedagogik maqsadga bo'ysundiradi. Boshqacha aytganda, raqamli vosita darsni bezovchi qo'shimcha emas, balki ta'lim natijasiga xizmat qiluvchi metodik yechimga aylanadi.

O'quv dizayni asosida ishlashda dastlab talabaga an'anaviy darsning texnologik xaritasi taqdim etiladi. U darsning maqsadi, kutiladigan natijalari, mazmuni va baholash mezonlarini tahlil qiladi hamda qaysi elementlarni onlayn muhitga ko'chirish, qaysi jarayonlarni esa auditoriyada saqlab qolish zarurligini aniqlaydi. Bu bosqich bo'lajak o'qituvchidan metodik tanlovni asoslashni talab qiladi. Chunki aralash ta'limda har qanday raqamli vosita avtomatik ravishda samaradorlikni ta'minlamaydi; uning qiymati pedagogik vazifaga qanchalik mos tanlanganligi bilan belgilanadi.

Keyingi bosqichda talabalar Moodle, Google Classroom, Padlet, kabi raqamli vositalardan foydalangan holda dars yoki modulning elektron qismini yaratadilar. Bu jarayonda ular nazariy materiallarni joylashtirish, interaktiv topshiriqlar ishlab chiqish, o'zini o'zi baholash testlarini tuzish, forum yoki chat orqali muloqot maydonini tashkil etish, monitoring va baholash vositalarini sozlash kabi amaliy harakatlarni bajaradilar. Mazkur faoliyat bo'lajak o'qituvchilarda operatsion-texnologik kompetensiyani shakllantirish bilan birga, ularning metodik tafakkuri ham rivojlantiradi. Chunki har bir raqamli topshiriq ortida "nima uchun?", "qanday natija beradi?", "qaysi kompetensiyani rivojlantiradi?" degan savollarga javob bo'lishi talab etiladi.

Loyiha himoyasi bosqichida talabalar yaratgan aralash dars yoki modulni pedagogik maqsadga muvofiqlik nuqtayi nazaridan asoslaydilar. Ular tanlangan raqamli vosita o'quvchining o'qish savodxonligi, mantiqiy fikrlashi, nutqiy faolligi yoki mustaqil ishlash ko'nikmasini qanday rivojlantirishini izohlab beradilar^[84]. Bu jarayon refleksiv kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi, chunki talaba o'z loyihasiga tashqi tomondan qaraydi,

uning kuchli va zaif jihatlari aniqlaydi, guruhdoshlari hamda o'qituvchi fikrlari asosida uni takomillashtiradi. Natijada bo'lajak o'qituvchi raqamli platformani alohida funksiyalar yig'indisi sifatida emas, balki pedagogik g'oyani amaliy mahsulotga aylantiruvchi muhit sifatida qabul qila boshlaydi.

Shunday qilib, aralash ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash metodikasida an'anaviy darsni tahlil qilish, uni aralash formatga moslashtirish, "Stansiya rotatsiyasi" modelida qayta loyihalash, raqamli resurs yaratish va loyiha himoyasi orqali refleksiv baholash bosqichlari o'zaro uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Mazkur bosqichlarning ilmiy yangiligi shundaki, ular bo'lajak o'qituvchini tayyor platformadan foydalanuvchi emas, balki pedagogik maqsadga mos raqamli-didaktik muhitni loyihalovchi mutaxassis sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan.

Darsni loyihalash va raqamli muhitda metodik mahsulot yaratish bosqichlaridan keyin bo'lajak o'qituvchilarda tayyor aralash darslarni tahlil qilish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda sifatini mezonlar asosida baholash kompetensiyasini shakllantirish zarurati yuzaga keladi. Shu nuqtayi nazardan tadqiqot doirasida "dars auditi" usuli aralash ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash metodikasining muhim tarkibiy qismi sifatida takomillashtirildi. Mazkur usul bo'lajak o'qituvchilarda tanqidiy fikrlash, metodik sezgirlik, raqamli resurslarga baholovchi munosabat va kasbiy mulohaza yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Uning afzalligi shundaki, talaba darsni noldan yaratishdan oldin mavjud raqamli darsni tahlil qiladi, undagi texnik, metodik, didaktik va kommunikativ nomuvofiqliklarni aniqlaydi hamda ularni bartaraf etish yo'llarini asoslaydi.

"Dars auditi" usulida talabalarga ona tili yoki o'qish savodxonligi metodikasi doirasida oldindan ishlab chiqilgan raqamli dars keys sifatida taqdim etiladi. Ushbu dars tarkibiga ataylab turli xatolar kiritiladi: havolalarning ishlamasligi, kontentning noto'g'ri joylashishi, platforma interfeysining noqulayligi, o'quv maqsadi bilan topshiriq o'rtasidagi nomuvofiqlik, nazariy materiallarning ortiqcha yuklanishi, onlayn va oflayn komponentlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikning yetishmasligi kabi holatlar shular jumlasidandir. Talabalar dastlab mazkur darsda o'quvchi sifatida ishtirok etadilar, barcha topshiriqlarni bajaradilar, platforma imkoniyatlari bilan ishlaydilar va o'quv jarayonini ichki tajriba sifatida his qiladilar. Keyingi bosqichda esa ular ekspert roliga o'tib, darsning metodik, texnik va didaktik sifatini tahlil qiladilar.

Mazkur yondashuvning ilmiy yangiligi shundaki, "dars auditi" bo'lajak o'qituvchilarni tayyor raqamli mahsulot iste'molchisi emas, balki uning sifatini baholay oladigan, metodik kamchiliklarni ko'ra oladigan va pedagogik yechim taklif eta oladigan mutaxassis sifatida shakllantirishga yo'naltiriladi. Talabalar har bir aniqlangan xato bo'yicha uning turini, kelib chiqish sababini, o'quv jarayoniga salbiy ta'sirini va tuzatish yo'lini aks ettiruvchi audit protokolini ishlab chiqadilar. Masalan, dars maqsadi analitik fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa-yu, baholash vositasi faqat faktlarni eslab qolishga mo'ljallangan testdan iborat bo'lsa, talaba bunday topshiriqni insho, konseptual xarita yoki muammoli savol asosidagi tahliliy topshiriq bilan almashtirish zarurligini asoslaydi. Shu orqali aralash ta'lim darsining sifati texnik bezak bilan emas, balki maqsad, mazmun, faoliyat va baholashning ichki uyg'unligi bilan belgilanadi degan metodik qarash shakllanadi.

"Dars auditi" usuli xavfsiz o'quv muhitida boshqalarning tajribasini tahlil qilish orqali o'z amaliy xatolarini kamaytirish imkonini beradi. Talaba tayyor darsdagi kamchiliklarni aniqlash jarayonida kelgusida o'zi ishlab chiqadigan raqamli ta'lim resurslari uchun ichki sifat mezonlarini shakllantiradi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv va diagnostik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, aralash ta'lim materiallarini tanlash, moslashtirish va yaratishda raqamli resurslarga tanqidiy yondashish boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun muhim kasbiy sifat hisoblanadi. Chunki boshlang'ich ta'limda har bir topshiriq nafaqat bilim berishi, balki o'quvchining yosh xususiyatlariga, idrok darajasiga va nutqiy rivojlanish ehtiyojlariga mos bo'lishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi bo'lajak o'qituvchilarni aralash ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirishni talab etmoqda. Aralash ta'lim texnologiyalari an'anaviy va raqamli ta'lim muhitini integratsiyalash orqali ta'lim jarayonining moslashuvchanligi, individuallasuvi va interaktivligini ta'minlaydi. Shu jihatdan aralash ta'lim bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy didaktik tizim sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot davomida kompetensiyaviy, tizimli va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarni aralash ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlashning metodik mexanizmlari tizimlashtirildi. Ayniqsa, "Stansiya rotatsiyasi", "Teskari sinf", loyiha asosida o'qitish, o'quv dizayni va "dars auditi" kabi innovatsion metodlarning qo'llanilishi talabalarni mustaqil fikrlashga, refleksiv faoliyat yuritishga hamda pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishga tayyorlash imkonini berishi aniqlandi.



Shuningdek, pedagogik amaliyotni LMS platformalari, chatbotlar, sun'iy intellekt elementlari va raqamli ta'lim vositalari bilan integratsiyalash bo'lajak o'qituvchilarning raqamli pedagogik kompetentligini rivojlantirishda muhim omil ekanligi asoslandi. Tadqiqotda "talaba – metodist – amaliyotchi o'qituvchi – raqamli muhit" hamkorlik modeli ishlab chiqilib, u bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashning samarali metodik mexanizmi sifatida tavsiflandi.

Tadqiqot natijalari aralash ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash jarayonida metodik loyihalash, refleksiv baholash, raqamli resurslarni tanqidiy tahlil qilish va pedagogik qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash dasturlarida nafaqat texnologik bilimlarni, balki raqamli-didaktik muhitni loyihalash va boshqarishga oid metodik ko'nikmalarni ham rivojlantirish zarur hisoblanadi.

Demak, aralash ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy moslashuvchanligini oshirish, zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorlash hamda ta'lim sifatini yaxshilashning muhim pedagogik omili sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmon. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Oliy ta'lim tizimida kredit-modul tizimini joriy etish to'g'risidagi qarorlar to'plami. – Toshkent, 2021.
4. UNESCO. Education in a Digital World: Global Education Monitoring Report. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.
5. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. – Paris: UNESCO, 2018.
6. Anderson T. The Theory and Practice of Online Learning. – Edmonton: AU Press, 2017.
7. Bates A.W. Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. – Vancouver, 2019.
8. Bonk C.J., Graham C.R. The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs. – San Francisco: Pfeiffer Publishing, 2018.
9. Garrison D.R., Vaughan N.D. Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. – San Francisco: Jossey-Bass, 2016.
10. Horn M.B., Staker H. Blended: Using Disruptive Innovation to Improve Schools. – San Francisco: Jossey-Bass, 2015.
11. Graham C.R. Emerging Practice and Research in Blended Learning // Handbook of Distance Education. – New York, 2019.
12. Moore M.G., Kearsley G. Distance Education: A Systems View of Online Learning. – Boston: Cengage Learning, 2018.
13. Selwyn N. Education and Technology: Key Issues and Debates. – London: Bloomsbury Academic, 2021.
14. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. – 2015.
15. Mishra P., Koehler M. Technological Pedagogical Content Knowledge (TPACK) Framework // Teachers College Record. – 2016.
16. Koehler M.J., Mishra P. Introducing TPACK // Handbook of Technological Pedagogical Content Knowledge for Educators. – New York, 2017.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.